

**TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR:
IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR****MODERN TECHNOLOGIES IN LANGUAGE TEACHING:
OPPORTUNITIES AND PROBLEMS****СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ:
ВОЗМОЖНОСТИ И ПРОБЛЕМЫ**

Madumarova Gulsanam Abdulmuxtor qizi

FarDu Filologiya va tillarni o'qitish:

ingliz tili yo'nalishi 24.111-guruh talabasi

Faxriddin O'rinboyevich Toshboltayev

FarDu "Axborot texnologiyalari"

kafedrasi katta o'qituvchisi (PhD).

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda rivojlanib borayotgan zamonaviy texnologiyalarning o'quv jarayonida tutgan o'rni tahlil qilinadi. Xususan, ularning xorijiy, ayniqsa ingliz tilini o'rganishdagi samaradorligi, o'quvchilar uchun yaratgan imkoniyatlari, interaktiv muhitda ta'lim olishga bergan hissiy yoritiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarning ayrim kamchiliklari, masalan, texnik qiyinchiliklar, motivatsiyaning pasayishi yoki inson omilining kamayishi kabi jihatlar ham ko'rib chiqiladi. Maqola zamonaviy texnologiyalarni til o'rganish jarayoniga to'g'ri integratsiya qilish zarurligiga urg'u beradi.

Abstract

This article analyzes the role of modern technologies in the educational process that are currently developing. In particular, it highlights their effectiveness in learning a foreign language, especially English, the opportunities they create for students, and their contribution to learning in an interactive environment. At the same time, some of the shortcomings of modern technologies, such as technical difficulties, reduced motivation, or a decrease in the human factor, are also considered. The article emphasizes the need for proper integration of modern technologies into the language learning process.

Аннотация

В статье анализируется роль современных технологий, которые развиваются сегодня в образовательном процессе. В частности, будет отмечена их эффективность в изучении иностранного языка, особенно английского, возможности, которые они создают для студентов, и их вклад в обучение в интерактивной среде. В то же время учитываются и некоторые недостатки современных технологий, такие как технические сложности, снижение мотивации или уменьшение человеческого фактора. В статье подчеркивается необходимость правильной интеграции современных технологий в процесс изучения языка.

Kalit so'zlar. Zamonaviy texnologiyalar, chet tillari, multimedia vositalari, masofaviy ta'lim, texnologik muammolar, interfeys, simulyatsiya, raqamli savodxonlik, elektron resurslar, raqamli ta'lim platformalari, virtual sinflar.

Keywords. Modern technologies, foreign languages, multimedia tools, distance learning, technological problems, interface, simulation, digital literacy, electronic resources, digital learning platforms, virtual classrooms.

Ключевые слова. Современные технологии, иностранные языки, мультимедийные средства, дистанционное обучение, технологические

проблемы, интерфейс, моделирование, цифровая грамотность, электронные ресурсы, цифровые обучающие платформы, виртуальные классы.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari barcha sohalarda, jumladan, ta'lim tizimida ham muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samarali o'qitish va o'rganish jarayonini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. Internet tarmog'i, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi platformalar, interaktiv dasturlar hamda onlayn ta'lim vositalari o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va bundan tashqari darslarni yanada qulay va samarali tashkil qilish imkonini bermoqda. Biroq, bu texnologiyalar ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan birga, ayrim muammolarni ham keltirib chiqarmoqda, bu esa o'qituvchilar va o'rganuvchilar uchun yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari til o'rganish jarayonini sezilarli darajada osonlashtirmoqda. Xususan, raqamli vositalar yordamida o'quvchilar individual yondashuv asosida mustaqil o'rganish imkoniga ega bo'lishmoqda. Turli onlayn platformalar va mobil ilovalar har bir o'quvchining bilim darajasiga mos darslarni taklif qiladi. Bu esa ularning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda tilni o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Misol uchun, Duolingo, Busuu kabi ilovalar asosan Ingliz tili va rus tili grammatikasini va so'z boyligini kengaytirish, talaffuzni mashq qilish bo'yicha foydali vositalardir. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar interaktiv ta'lim imkoniyatlarini yaratib beradi. Maslan, o'quvchilar video darsliklar, audio fayllar, animatsiyalar, o'yinlar va virtual mashg'ulotlar orqali o'rganayotgan tilni nafaqat eshitish, balki ko'rish, tasavvur qilish va real vaziyatlarda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Xalqaro ilmiy ishlanmalar

- Xalqaro ilmiy ishlanmalar

Xorijiy tadqiqotlar orasida esa J. Richards va T. Rodgers (2001) tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ yondashuv, shuningdek, Dudeney va Hockly (2007) ning “ICT in the English Language Classroom” nomli asari bu boradagi muhim nazariy manbalardandir. Ushbu adabiyotlar texnologiyalarning til o‘rganishdagi afzalliklari, yangi metodik yondashuvlar va real amaliyotdagi natijalarni taqqoslab o‘rganishga imkon beradi.

- Texnologiyalarning til o‘rganishdagi muammolari va cheklovlari

Har qancha foydali jihatlari mavjud bo‘lishiga qaramay, zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish bir qancha muammolarni ham yuzaga keltiradi. Avvalo, o‘quvchilar texnologiyalardan noto‘g‘ri yoki haddan tashqari ko‘p foydalanishlari mumkin, bu esa chalg‘ish, diqqatni jamlay olmaslik va yuzaki o‘rganishga olib keladi. Masalan, mobil ilovalarda berilgan ba’zi testlar yoki mashqlar osonlik bilan yechiladi, vaholangki bu bilim chuqurligi yoki mustahkamligi bilan bog‘liq bo‘lmasligi mumkin. O‘quvchi o‘sha materialni haqiqiy muloqotda to‘g‘ri qo‘llay olish darajasiga chiqmasligi mumkin.

Yana bir muammo – bu texnologik vositalarga hammaning birdek kirish imkoniyatiga ega emasligidir. Internet tezligi, zamonaviy qurilma yo‘qligi yoki raqamli savodxonlikning pastligi ayrim o‘quvchilar uchun bu imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Qishloq joylardagi maktablar yoki ijtimoiy va moliyaviy jihatdan noqulay oilalarda yashovchi o‘quvchilar texnologiyalarni yetarli darajada qo‘llay olmasliklari sababli bilim olishda boshqalardan ortda qolishlari mumkin. Bu esa ta’limda tengsizlik muammosini kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, ayrim holatlarda texnologiyalar o‘qituvchining ishtirokini kamaytirib yuboradi. Bu ayniqsa boshlang‘ich til o‘rganish jarayoniga endi kirib kelayotgan o‘quvchilar uchun salbiy holat hisoblanadi. Til o‘rgatishda o‘qituvchining muloqot, mimika, holat, ijtimoiy va madaniy tafsilotlarni tushuntirib bera olishi juda muhim. Buni har doim texnologiya to‘liq qoplay olmaydi. Shu sababli, faqatgina

texnologiyaga to'liq tayangan holda o'qitish emas, balki uni o'qituvchilik jarayoniga moslashtirib, muvozanatli holda yondashish zarur.

MUHOKAMA VA NATIJA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar til o'rganish jarayoniga yangicha yondashuv olib kirib, ta'limning interaktiv, samarali va moslashuvchan bo'lishiga xizmat qilmoqda. Ular o'quvchilarni darsga jalb qilish, mustaqil o'rganishni rag'batlantirish, vizual va audio vositalar orqali murakkab mavzularni osonroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, masofaviy ta'lim va mobil ilovalar orqali tilni istalgan joyda o'rganish imkoniyati ham kengaydi.

Biroq, bu texnologik vositalardan unumli foydalanish uchun raqamli savodxonlik, infratuzilma, o'qituvchilar va o'quvchilarning tayyorgarligi katta ahamiyatga ega. Haddan tashqari texnologiyaga suyanish insoniy omil – ya'ni, o'qituvchining roli, insonlar o'rtasidagi jonli muloqot va shaxsiy yondashuvning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, texnologiyalarni qo'llashda ularni asosiy emas, balki o'qituvchilarga yordamchi vosita sifatida ko'rish zarur.

Xulosa qilib aytganda, til o'rganishda katta imkoniyatlar ochish bilan birga ba'zi bir muammolarni ham keltirib chiqarayotgan zamonaviy texnologiyalarni ta'lim tizimiga to'g'ri integratsiya qilish kelajakdagi muvaffaqiyatning kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Solihov Y. (2021). *Ingliz tilini o'qitishda AKT vositalarining o'rni*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Hasanova M. (2020). *Multimedia texnologiyalarining leksikani o'rgatishdagi samarasi*. // Til va adabiyot ilmi, №2, 45–50-betlar.
3. Richards J.C., Rodgers T.S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.

4. Dudeney G., Hockly N. (2007). *How to Teach English with Technology*. Pearson Education Limited.
5. Bax S. (2003). *CALL – past, present and future*. System Journal, Vol. 31, pp. 13–28.